

## XONANDALIK VA HOFIZLIK MAHORATI



**Nodira Pirmatova**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*

*“Maqom xonandaligi” kafedrası mudiri, dotsent,  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist.*

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I6-6>

**Annotatsiya:** Maqom sehrli va an’anaviy san’at. Qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo’tadillik bag‘ishlaydi. O‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosi azaldan shakllanib, xalq orasida qadrlanib kelingan. Shu bois bizning milliy musiqa san’atimizni jahonga yuz tutishida, mumtoz musiqa, milliy qo‘shiqchiligimizning va umuman olganda madaniyatimizning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Musiqa san’atini buyukligi, avvalo ijodiyot an’analarning amaliy mahsulidadir. Ushbu maqolada o‘zbek milliy maqom san’ati, xonandalik va hofizlik mahorati xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Maqom, an’ana, ijrochilik, musiqa, san’at.

**Аннотация:** Маком – магическое и традиционное искусство. Он дарует мир и спокойствие сердцу, чистоту и умеренность духу. Классическое музыкальное наследие узбекского народа формировалось с незапамятных времен и ценилось в народе. Поэтому классическая музыка, национальное пение и наша культура в целом занимают особое место в представлении миру нашего национального музыкального искусства. Величие музыкального искусства — это прежде всего практический продукт творческих традиций. В данной статье рассматривается искусство национального статуса узбеков, пение и мастерство хафизов.

**Ключевые слова:** Маком, традиция, исполнение, исполнитель, музыка, искусство.

**Abstract:** Makom is a magical and traditional art. It gives peace and tranquility to the heart, purity and moderation to the spirit. The classical musical heritage of the Uzbek people has been formed since time immemorial and was valued by the people. Therefore, classical music, national singing and our culture as a whole occupy a special place in presenting our national musical art to the world. The greatness of musical art is, first of all, a practical product of creative traditions. This article examines the art of the national status of the Uzbeks, singing and the skill of the hafiz.

**Key words:** Makom, tradition, performance, performer, music, art.

Xonandani milliy, xalqona ruhda, mukammal qilib tarbiyalash – serqirra pedagogik tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir. Tinglovchi-tomashabin ijroda yorqin badiiy obraz yarata oladigan, asarni mukammal talqin eta oladigan xonanda ijrosidan ma’naviy boy ozuqa oladi. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda “Shodlik oshiruvchi xonanda: g’amni tarqatuvchi sozanda – bularning har ikkisiga, hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar” [1, 29-b] Buning uchun xonandalik kasbini egallayman, degan har bir san’atkor xonandalikning tabiiy in’omlariga, sabog‘iga va mahoratiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Yaxshi xonanda avvalo mahorat poydevorini quradi. Ustozlar sabog‘ini olib musiqiy merosni idroklagan holda o‘zlashtiradi. Bu, eng avvalo, ijrochiga sahnada o‘zini erkin his qilishga, o‘z iste’dodini charxlashga imkon yaratadi.

Xonandalikning tabiat in’omlari deganda biz, avvalo, tabiiy go‘zal ovoz, keng nafas, keng diapazon va albatta idrokni tushunamiz. Bu unsurlarni ilm bilan sug‘orish va idrok yetish asosan saboq jarayonining amallarini tashkil etadi. Saboq jarayoni esa, ijroda aniq nutqga erishish, mukammal talaffuzga mahoratini o‘zlashtirish kabilarni qamrab oladi. Shu bois, saboq mezonida,

ya'ni xonandalik mahoratini o'zlashtirish darslarida o'z ustida jiddiy ishlagan talaba musiqiy ijrochilikda muhim bo'lgan ohang erkinligiga va kuylash mahoratiga ega bo'lishi begumondir.

Ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish ijrochi xonandaning shakllanishida katta ahamiyatga kasb etadi. Xonanda musiqani ichki tinglash qobiliyati bilan eshitar ekan, ijro etilayotgan asarning mohiyatini o'z qalbiga singdirib, tushungan holda talqin yetishga imkon beradi. Xonanda, avvalo, ichki tinglash qobiliyatini xirgoyi uslubida rivojlantirishi lozim. Yaxshi rivojlangan ichki tinglash qobiliyati xonandalikning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Qolaversa, ijro etilayotgan asarni chuqurroq his etadi, to'laqonli ijro etish uchun zamin bo'ladi.

Hissiyot deganda, insonning u yoki bu vaziyatga ijobiy yoki salbiy hamdardligi tushuniladi. Bu ijrochining ifodalayotgan badiiy ko'rinishiga bog'liq. Sahnaga chiqishdan oldin hissiyotni to'g'ri sozlash xonanda uchun o'ta muhim omildir. Ustoz tomonidan shogirdning his-tuyg'ulari to'g'ri, samarali yo'lga solinishi lozim. His-hayajon, tuyg'ular va ijrochilik mahorati, ijro etilayotgan asarda muallif g'oyasini ochib berish uchun zarurdir. Ammo ularning haddan tashqari bo'rttirilishi yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Haddan ziyod ehtiros, jo'shqinlik, ovoznning mo'tadil holatining o'zgarishiga olib keladi, uning tembri jabr chekadi, ijrochilik uslubi esa ishonarsiz chiqadi. Tinglovchiga so'z va musiqa orqali ta'sir etish, bundan yuqori ijrochilik madaniyatini namoyon etish (nozik did, intellekt) janr va uslublarni bilish, ijrochilik mahorati xonandalikning asosiy jihatlaridan hisoblanadi.

Sinfda talabalar bilan kundalik mashg'ulotlar: xonandalik va musiqiy bilimlarni rivojlantirish, tanlangan qo'shiq-ashulalarning ustida ishlash, asar mohiyatini ochib berishda musiqiy va adabiy matn bir xil ahamiyatga ega. Shuning uchun dars jarayonida mavzuni talaba nazdida yorqin ifoda etilishida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish talabaning asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Dars jarayonida talabaga o'zi o'rganadigan asarning qaysi maqom, parda tuzugi (lad)ga yaqinligi aytiladi. So'ngra talaba ongiga mazkur parda tuzugini singdirish uchun o'sha ohangga yaqin kuylar asosida ovoz mashqlari o'tkaziladi. Mashqlardan ma'lum darajada qanoat hosil qilingach, o'rganilayotgan asarning musiqiy va badiiy matni tahlil etiladi. Tahlilni mavzuning she'riy matnidani boshlash maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida mavzuga tegishli badiiy matn talabaga bir necha marotaba o'qitish lozim. Talaba she'r o'qiyotganda uning so'zdagi tovushlar va bo'g'inlarini to'g'ri talaffuz etishini o'qituvchi nazorat qilib borishi talab qilinadi. Talaffuz chiroyli, go'zal va tiniq tarannum etilishi lozim. Bu unli va undosh tovushlarning ovozda to'g'ri ifoda etilishi, tovushlarning oddiy suhbat yoki kuylayotgandagi tiniq ifodasi, ovozning an'anaviy xonandalik talab-qoidalariga binoan shakllanishi demakdir. An'anaviy xonandalikning asosini tashkil etuvchi xalq qo'shiqlari, katta ashulalar, bastakorlik ijodidagi qo'shiqlar, maqomlar – barcha-barchasi aruz vaznidagi g'azal, murabba, muxammas, musaddas shakllarida yozilgan matnlar bilan kuylanadi.

Xonandaning asosiy vazifasi – asar g'oyasini to'laqonli ochib, tinglovchiga ma'naviy ozuqa berishdan iborat. Asar g'oyasini ochib berish va uning talqini esa bevosita amaliyotda mavjud turli ijro uslublarini, janrlarini o'rganish va o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Ijroda ifodaliylikka erishish xonanda ijodidagi eng muhim hodisa hisoblanadi va sahnaga chiqish bilan yakunlanadi. Qayd etish joizki, xonandaning sahnaga chiqishi doim hayajonli holatlar bilan bog'liq. Bu tabiiy hol bo'lib, talabada sahna ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki, aksariyat hollarda bunga e'tibor qaratilmaydi. Oqibatda xonandaning asabiylashishi va hatto qo'rquv holatlari ham vujudga keladi. Ushbu ruhiy omillarning ijobiy natijasiga erishish maqsadida ustoz shogirdida kuchli irodani, o'z-o'zini nazorat qilish yo'llarini shakllantirishi lozim bo'ladi. Bunga, eng avvalo, asarni mukammal o'zlashtirish, talqin mezonining o'zida ishonch bo'lishi, qat'iylik, tartib-intizom, hurmat bo'lishi lozim. Buning uchun talabada shogirdning individual (yakka tartibda) xususiyatlari, ruhiy ta'sirchanligi, shiddati, didini hisobga olgan holda sinfda ishlash aniq rejalashtirilgan, puxta yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Pedagogik mezonning asosiy masalalaridan yana biri, bu – talabalarni ruhiy jihatdan tayyorlash. Sahnadagi hayajon, asabiylilik xonanda kuylayotgan qo'shig'i yoki ashulasi uchun javobgarlikni his qilishdan kelib chiqadi. Hayajon, asabiylilik, qo'rquv yosh xonandaning o'z bilimi va ijrosiga ishonmasligi oqibatida kelib chiqishi muqarrar. Shu o'rinda musiqiy sahnada yangi

bosqich yaratgan buyuk ingliz pianinotchisi, mahoratli konsertmeyster Jerald Murning quyidagi ibratli soʻzlarini keltiramiz: “Ijrochining abadiy muammosi – ichki muvozanatni oʻrgatish, oʻz kuchiga ishonish va manmanlik oʻrtasidagi farqni anglash, oʻzining qanchalik ahamiyatga egaligi va kibrni farqlay bilishidir”.

Xonandaning ijodiy shakllanishida, shubhasiz, uning insoniy his-tuygʻulari, hayoti bilan bogʻliq boʻlgan tasavvur kuchi katta ahamiyatga ega. Tasavvur, bu – ijrochining badiiy ijroga nisbatan talab qilinayotgan munosabatidir. Sahnada ijrochi maʼnosiz harakat, choʻchigan nigoh, betartib qoʻl harakatlari, tamoshabinni kuzatish kabi harakatlarga berilishga yoʻl qoʻymasligi lozim. Chunki, tomoshabin nafaqat xonandani koʻradi, tinglaydi, balki unga qarab maʼnaviy ozuqa olishga harakat qiladi. Sahnada ijrochi oʻz xonandalik isteʼdodini koʻrsatish bilan kifoyalanmay, balki barcha bilim, qobiliyat, imkoniyatlarini koʻrsatishi hamda ijro etayotgan asar obrazini namoyon qilishi lozim.

Ijrochining ijodiy shakllanishida, shubhasiz, uning insoniy hissiy (emotsional) hayoti bilan bogʻliq boʻlgan tasavvur kuchi katta ahamiyatga ega. Tasavvur – bu ijrochining badiiy ijodga nisbatan talab qilinayotgan munosabatidir.

Ijrochilik faoliyatini ijodiy tasavvursiz tasavvur qilish mumkin emas. Masalan, asosiy maqsad konsertda asar ijro qilish emas, balki ishning yakunidir. Ijro etilayotgan asar - oʻrganish bosqichlarining sintezidir. Ijrochilik amaliyoti, ijrochilik mahoratini shakllanishiga yordam beradi. Chunki, xonanda bu jarayonda tinglovchiga qay darajada taʼsir qilishi, ijrochilik mahoratini, tovush va soʻzlarni mukammal hamda mimikalar yordamida koʻrsatishga harakat qiladi. Ijrochi doim shuni yodda tutishi zarurki, uning bosh maqsadi – tomoshabinni ishonтира bilish, nafosatini, didini shakllantirishdir. Buning uchun albatta ijrochi eng avvalo sahna ijrosiga tayyor boʻlishi, ustozidan olgan ijrochilik saboqlari doirasida ijrochilik mahoratiga ega boʻlishi lozimdir. Bu mezon xonanda uchun lozim boʻlgan bir qator intellektual unsurlarning rivojlantirishni talab etadi. Jumladan:

- zukkolik va intuitsiya;
- xotira;
- hissiyot mexanizmi;
- auditoriya bilan toʻliq ijodiy uygʻunlikka erishish;
- sahna madaniyati;
- ijodiy munosabat.

Zehn (aql, tushunish va anglash qobiliyati) va hissiyot (intuitsiya) mushohada qilish – bular muhim jihatlari boʻlib, xonandalikdagi muhim unsurlar sifatida gavdalanishi juda ahamiyatlidir.

Yosh xonanda faoliyatining ilk damlaridanoq oʻz ustida muntazam ishlashi, xonandalik qonun-qoidalari tavsiya etilgan manbalarni mutolaa qilib borishi, turli yoʻnalishga mansub xonandalar xonishlari yozilgan yozuvlarni tinglab borishi, milliy xonandalik va hofizlar tarixini oʻzlashtirishi, musiqiy merosni oʻzlashtirib borishi, mumtoz adabiyotdan xabar topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga tasviriy sanʼat, nafosat (estetika, etika) masalalaridan ham xabardor boʻlishi xonandaning ijodiy intellektual salohiyatiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Chunki xonandaning qiziqish va qarashlarining kengligi, uning ijodiy faoliyatini toʻliq shakllantirishga asos boʻladi.

Musiqqa, maʼlumki, hayotni tovushlar koʻrinishida ifodalash kabi noyob xususiyatga ega. Fikr, tuygʻu va gʻoyalarni yetkazib berishda musiqiy tilning imkoniyatlari cheksizdir. Tabiatan betakror tembrga ega ovoz inson zehni, qalbi, hissiyoti orqali sayqallanadi, goʻzallikka erishadi. Inson ovozi tabiat yaratgan musiqqa asbobidir. “Inson tanasi – doimo sozlash zarur boʻlgan murakkab musiqqa asbobidir” yoki “Inson jismi shunday maxsus kalitga egaki, qanday vazifani bajarishi, qanday tebranishiga koʻra turli organlar tonini aniqlab bera oladi” deb taʼkidlab oʻtgan edi, oʻtmish faylusufklaridan biri. Tovush va muayyan koʻkrak-qovurgʻa orasidagi tebranishli rezonans mavjudligi shubhasiz faktdir. Musiqqa va ovozning uygʻunligi musiqiy asarni namoyon qilishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Milliy xonandalik mahoratini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biri, bu – sahna bilan bogʻliq ijodiy konsertlarni imkon boricha koʻproq tashkil yetishdir. YAʼni institut doirasidagi

konsertlar. Bular quyidagi shaklda bo‘lishi mumkin va albatta ustozlar bilan birga talabalar ishtiroki etishi maqsadga muvofiqdir. Ya’ni “Ustoz-shogird” konsertlari, Navoiyxonlik, Boburxonlik, Fuzuliyxonlik, Nodira-yu Uvaysiyxonlik, Ogahiy, Furqat-u Muqimiy g‘azalxonlik kechalari. Ularni zamonaviy shoirlar so‘zlari bilan aytiladigan hamda zamonaviy bastakorlar bastalagan qo‘shiqlar bilan o‘tkazish. Konsert repertuari, unda ijro etiladigan asarlar mavzusi ustoz tomonidan asosli, ongli yondashuv bilan tanlanishi lozim. Chunki bu omillar nafaqat talabalarning konsert amaliyotiga, balki shogirdlarning ovozi, iste’dodi darajasi, sahna madaniyati, sahna mahoratiga ko‘proq ta’sirini ko‘rsatadi.

Konsert talaba uchun doimo sinovdir, zero u o‘z mahoratini, ijodini tinglovchilar hukmiga havola qiladi. Ijrochilar konsertgacha bosib o‘tgan va qiyinliklar, ikkilanishlar, izlanishlardan iborat yo‘lni tinglovchilar bilmaydilar, ulkan tayyorgarlik haqida ular balki o‘ylab ham ko‘rmagandirlar. Qolaversa, konsert ruhiy va jismoniy zo‘riqishsiz o‘tmaydi, shu bois qatnashuvchilardan puxta professional, emotsional va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu munosabat bilan konsert oldidan va konsert kuni o‘zini qanday tutishi to‘g‘risida savol tug‘iladi. Konsert kunida, odatda, repetitsiya bo‘lib o‘tadi. Bunda ijrochilarini charchatib qo‘ymaslik, detallar ustidagi ishni imkonqadar kamaytirish, asosan asarni boshidan oxirigacha yoki yirik qismlarini ijro etish tavsiya etiladi. Shunda dastlabki tayyorgarlikka munosib yakun yasaladi.

O‘zbek xalqi yaratgan badiiy me’ros o‘zbek millatiga mansub. Demak, maqom ijodiyoti o‘zbek musiqa merosining eng salobatli, eng sermahsul, eng ardoqli qatlamini tashkil etadi. Endilikda esa maqom merosi xilma-xil milliy va mahalliy o‘ziga xos ko‘rinishlardan iborat bo‘lgan behisob jonli cholg‘u va ashula namunalarida namoyon bo‘lmoqda. “Shashmaqom” jonli jarayon har bir tarixiy davr o‘zgarishlar kiritadi va hayot taqazosi bilan ushbu jonli jarayon sayqal topib, o‘zgarib boradi. Zero, biz tarbilayotgan talabalar, milliy mumtoz ashulalar ijrochilari – sho‘x yallalardan tortib, maqom namunalarigacha bo‘lgan janrlarni yaxshi bilishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Navoiy A. Mahbub ul qulub. - T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 1983, 29
2. Mamadaliyev F. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001.
3. Matyoqubov O. “Maqomot”. – Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2004.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 1. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
5. Sharipova G. Musiqa va uning o‘qitish metodikasi. – Toshkent.: 2006.–B.137.
6. Soipova D. Musiqa va musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: Fan va texnologiyalar, 2006.
7. Estetik tarbiya asoslari. N.Kushayev tahriri ostida. T.: O‘qituvchi, 1987.
8. Hasanov A. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi. Toshkent. 1983.